

## OROL DENGIZINING EKOLOGIK AHVOLI

Maxsetbaev Batir

**Qoraqalpoq davlat universiteti**

**Tarix fakulteti 2-bosqish talabasi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7660839>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Orol dengizining paydo bo'lishi va hozirgi sharoiti haqida so'z yuritiladi. Orol dengizida bugungi kunda yuzaga kelgan fojialar va uning yechimlari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Ptolamey, Orol bo'yi, Orol cho'li, antropogen ta'siri, eol qumlari, tuz, muzliklar, fitomelioratsiya

Orol va Orol bo'yi o'zining betakror, kishiga yaqin odamlari bilan qadimdan olimlarni o'ziga tortib kelgan. Bu hudud haqidagi dastlabki ma'lumotlar eramizdan avvalgi II asrda yashagan geograf Klavdey Ptolemey mehnatlarida ko'zga tashlanadi. U tuzgan "Dunyo xaritasi"da hozirgi Orol dengizi o'rnida Oks ko'llari tasvirlangan. IX asrda yashagan arab geografi va sayyohi Ibn Xurdadbek o'zining "Kitabi ol masalik val momalik" kitobida Amudaryo va Sirdaryo suvlarining Orol dengiziga quyilishini yozib o'tgan. O'lkamizda tug'ilib-o'sib ijod etgan Abu Rayhon al-Beruniyning "Geodeziya" asari Orol tarixi bo'yicha juda muhim manba bo'lib hisoblanadi. U yerda Orol dengizining kelib chiqishi tarixi, Amudaryoning o'tmishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Farang geografi Dalil 1723-yili tuzgan xaritasida Orol botig'ida joylashgan suvlar havzasini birinchi marta "Orol" deb atagan.

Orol dengizining tubi xolostonik harakatlar ta'sirida cho'kishi sababdan paydo bo'lgan. Bu cho'kmaning dastlabki Amudaryo va Sirdaryo suvi bilan to'lishi bizning eramizdan avvalgi birinchi ming yillikning birinchi yarmida yuz bergan. Keyin esa Amudaryo va Sirdaryo suvining ko'payib, kamayib turishi ta'sirida dengizning suvlari ba'zan pasayib, ba'zan ko'tarilib turgan. Tarixga nazar soladigan bo'lsak, so'nggi 200 yil ichida Orol dengizi suvi uch marta ko'tarilib, ikki marta pasaygan. Buning sababi tabiiy omillarga quloq solganda, quyoshning davrliligi va nur sochishi faoliyatiga aloqador holda namli va qurg'oqchilik davrlar bo'lib, daryolar suvlar tartibiga ta'sir etgan. Sababi bu davrlarda Orol havzasidagi suv resurslariga antropogen ta'sir hali kuchsiz bo'lgan.

Orol dengizi qurib qoligunga qadar dunyoda kattaligi bo'yicha to'rtinchi o'rinda turuvchi ko'llardan edi. Orol havzasida 1960-yillardan e'tiboran, sug'orma yerlar maydonining uzluksiz ravishda ortib borishi, suv saqlagichlarning qurilishi, shaharlar va sanoatning qad ko'tarishi, aholi sonining ortib borishi sababidan Amudaryo va Sirdaryo yil sayin Orolga kam suv quya boshlaydi. Biroq dastlabki vaqtlari SSSR bu holatni aholidan berkitib keladi. Dengiz sathidan bug'lanish miqdoriniing ortib borishi oqibatida suvlar pasayib, asosiy shu'basi quruqlikda aylanadi. Quruqlikda aylanishi sababidan eol qumlar relyefi shakllanib, ko'llar bo'limida tipik sho'rliklar poyasi paydo bo'ldi. Shunday qilib, sobiq dengizning qurib qolgan bo'limida "Orolqum" cho'llari paydo bo'ldi. Orolning qurib qolgan bo'limida bir-biridan ajralib qolgan uchlar orol; Shimoliy, Sharq va G'arb orollar saqlanib qolgan edi. Biroq so'nggi yillarda kunning keskin isib ketishi sababli Sharq oroli qurib qolib, o'rni sho'r va botqoqlikqa aylanib qoldi. G'arb shu'basi chuqurroq bo'lgani uchun belgilangan vaqtga qadar saqlanib qolishi mumkin.

“MATE” universiteti ilmiy izlanuvchisi, dotsent qoraqalpog'istonlik Dadabek Olimov Orol dengizi suvini saqlab turishi haqida o'zining bir qancha fikrlarini bildirib o'tdi. U yerda “Qoraqalpog'istonning janubiy tumanlari To'rtko'l, Beruniy, Ellikqal'a kabilar qishloq xo'jaligidan chiqqan namiqqan suvlarni Aqshako'l kollektori qirg'oqlari Orol dengiziga qadar uzaytirish maqsadga muvofiqdir. Bu qazilishi zurrur bo'lgan kollektor birinchidan, Qaratereng, Yaltiroqbosh ko'llaridan chiqqan suvlar qirg'oqlari Oqpetki va Sariqbas ko'llarini suvlar bilan ta'minlash va undan Orol dengiziga suv keltirish imkoniyati yaratiladi. Shu tariqa tuz miqdorini ham yaxshilashga bo'ladi”,-deydi ilmiy izlanuvchi.

Orol dengizining qurigan shu'basi tuzga aylanib, qurigan muhitga katta xavf tug'diradi. Bu bo'lsa iqtisodiyotga, xalqning salomatligiga qarama-qarshi ta'sir ko'rsatmoda. Orolning qurigan shu'basidan tuz oralab chang-to'zon uzoq masofalarga, hatto O'rta Osiyo tog'laridagi muzliklar yuzasiga tushib, uning erishini tezlashtirib yubormoqda. Shu sababli bu jarayonning oldini olib, biror kishiga yaqin odamlarni qo'riqlash zarurli bo'lib topiladi. Bunda qum uyumlarining oldini olish uchun shamol kuchi ta'sirini kamaytirish maqsadida har xil to'siqlar paydo qilish, fitomeliorsiya choralarni ro'yobga chiqarishlik, Orolning qurib qolgan shu'basi belgili bitta yerda tabiiy holda qo'riqlash va saqlab qolish maqsadga muvofiqdir. Ko'pchilik biladiki, biz yashab kelayotgan hududimiz necha yillardan buyon havoning iflos bo'lishi, suvsizlik, global shishish kabi og'ir tabiat hodisalari bilan to'qnashib keladi. Orol dengizining qurishi sababidan cho'llarga aylangan hududlardan havoga ko'tarilgan million- million tonna tuzli qumlar, og'ir masala ekani hech kimga sir emas. Bizning Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov ushbu masalani dastlab BMT Bosh assambleyasining 1993-yili 28-sentyabrda bo'lib o'tgan 48-sessiyasida ko'tarib chiqqan va dunyo mamlakatlarining e'tiborini Orol dengiziga qaratgan.

Bugungi kunga kelib, dengizning qurigan bo'limida ko'klamzorlashtirish ishlari olib borilmoqda. Bu yerda asosan saksovul nihollari juda keng hududlarga ekilyapdi. Albatta, bunday hayrli ishda xalqimiz o'z mehnati bilan yaqindan yordam bermoqda. Shu o'rinda otabobolarimizning "Harakatda baraka" deganidek, ushbu ishlar vaqti kelib o'z samarasini beradi.

### References:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. -Toshkent <<Ma'naviyat>>,2008.
2. Bulgakov P.G. Beruniy i ego “ Geodeziya”.-Toshkent:<<Fan>>,1966.
3. [https://kopilkaurokov.ru/istoriya/presentacii/orol\\_fojiasining\\_zararli\\_oqibatlar\\_i\\_ppt](https://kopilkaurokov.ru/istoriya/presentacii/orol_fojiasining_zararli_oqibatlar_i_ppt)